

## O'zbekiston-Ozarbayjon Fanlar akademiyalari hamkorligi: olimlarimizning ilm yo'lidagi mustahkam qadamlari

Bugun Boku shahrida bo'lib o'tgan Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasining umumiy yig'ilishida O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Sirojiddin Mirzayev ma'ruza qildi. Ilmiy yig'ilishdan so'ng Milliy Fanlar akademiyasi prezidenti A.Habibbeyli va vitse-prezidenti A.Gashimov hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Sirojiddin Mirzayevlar ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda ikki mamlakat Fanlar akademiyalari o'rtasidagi hamkorlik, ularni kengaytirish va yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Ikki azaliy qardosh, do'st davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro manfaatli ilmiy va ilmiy-texnikaviy muammolar bo'yicha qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, qo'shma ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar, yig'ilishlar va amaliy seminarlar tashkil etish, ilmiy kadrlar tayyorlashga ko'maklashish, ilmiy-texnikaviy ta'lim va ilmiy-texnikaviy ta'minotni rivojlantirishga ko'maklashish rejalashtirilgan. Bu uchrashuv mamlakatlarimiz o'rtasidagi ilm-fan yutuqlarini almashish, olimlarimizning kelgusi do'stona hamkorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

